



Qo‘qon DPI

ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 5/2025

Qo‘qon DPI.

Ilmiy xabarlar



Кокандский ГПИ.

Научный вестник

№5/2025

<p>УЎК 5/9(08) КБК 72я5 К 99</p> <p>MUASSIS: Qo‘qon davlat pedagogika instituti Qo‘qon DPI. ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.</p> <p>Jurnaldan maqola ko‘chirib bosinganda, manba ko‘rsatilishi shart.</p> <p>"Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-tonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san’atshunoslik fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.</p> <p>Tahririyat manzili: 150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Cajit: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 “CLASSIC” nashriyoti 2025</p>	<p>Bosh muharrir: Qo‘qon davlat pedagogika instituti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas’ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor N.S.Jurayev Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor N.A.Kadirova Mas’ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshligi D.O’rinboyev Nashr uchun mas’ul: M.Z.Muydinov</p> <p>TABHIY FANLAR И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) S.F.Arripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB) А.ЖХусанов-физика-математика фанларни номзоди, доцент (O‘ZB) O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) G.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.No‘monov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)</p> <p>FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Потапова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB)</p> <p>IJTIMOIY FANLAR Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галимова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)</p> <p>PEDAGOGIKA FANLAR Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)</p>
---	--

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 5-son)**



**IJTIMOIY FANLAR
SOCIAL STUDIES**

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY-GUMANITAR
FANLARNI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-
USLUBIY MASALALARI**

Tog‘aev Shavkat Xurramovich

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq
ta’limi kafedrasi dotsenti falsafa fanlari nomzodi*

ORCID ID: 0009-0008-2183-8802

Annotatsiya: Maqolada bugungi insoniyat hayotida kechayotgan murakkab, ziddiyatli ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, turli daraja va ko‘lamlarda namoyon bo‘layotgan muammo va illatlar zamонавија jamiyatatlarda yuz berayotgan ma’naviyatsizlik, uni bartaraf etishda muhim o‘rin tutuvchi falsafiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarni etarlicha o‘qitilmayotgani tufayli kelib chiqayotgani asoslangan. Bu borada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan nazariy va amaliy ishlar, ularga oid siyosiy-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar tahlil qilinib, mamlakat oliy ta’lim tizimida mazkur fanlarni o‘qitish zaruriyati va ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Ayni paytda maqolada qo‘yilgan muammolar tahlilidan kelib chiqib, O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar soha uchun malakali kadrlar tayyorlashga doir xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ma’naviyatsizlik, ijtimoiy-gumanitar fanlar, fanlarni o‘qitish zaruriyati, jamiyat, ta’lim, tarbiya, oliy ta’lim, ma’lumotlilik, fanlarni o‘qitish zaruriyati, huquq, demokratiya.

KIRISH. Insoniyat tarixiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida dunyo xalqlari hayotida ma’naviyatga, uni ilmiy asoslarda rivojlantirishga ehtiyojlar ortib bormoqda. Buni bugungi global muammolar tizimida ma’naviy inqirozlarning chuqurlashayotgani va bu jarayonning oldini olishga qaratilgan demokratik intilishlarda, dunyodagi har bir xalq va mamlakat taraqqiyotida ma’naviyat va mafkuraning g‘oyat muhim, ba’zan esa hal qiluvchi rol o‘ynayotganida yaqqol ko‘rish mumkin. Shundan kelib chiqib, O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotining asosi – ma’naviyat, deb e’tirof etilgani va mustaqillik yillari bu boradagi ishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangani bejiz emas. Biroq bunga hamisha va har joyda etarlicha e’tibor berilayapti, deb bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: “Avvalambor, hozirgi vaqtida ma’naviyat masalasi naqadar o‘tkir va hal qiluvchi masalaga aylanib borayotganini aksariyat ko‘pchiligidan hali ham chuqur tushunib etganimiz yo‘q”[1, 12].

Darhaqiqat, qaerdaki ma’naviyat, uning inson va jamiyat hayotidagi o‘rnini etarlicha tushunilmasa, uni rivojlantirishda asosiy o‘rin tutuvchi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishga jiddiy e’tibor berilmasa, o‘sha erda muammolar kamayish o‘rniga ko‘payishi mumkin. Xususan, hozirgi davrda dunyodagi ko‘plab xalqlar hayotida, jumladan, O‘zbekistonda ham namoyon bo‘layotgan muammo va illatlarning aksariyati aynan ma’naviyatsizlik, ma’naviyat masalalariga etarlicha e’tibor bermaslik, bu borada muhim o‘rin tutuvchi falsafiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarni etarlicha o‘qitmaslik tufayli kelib chiqmoqda. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, bugungi insoniyat ijtimoiy hayotidagi barcha bosqich, soha, yo‘nalish, daraja va ko‘lamda namoyon bo‘layotgan turli muammolarni hal etilishi ayni shu sohadagi ishlar samaradorligiga bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODLAR. Shu nuqtai nazardan, keyingi yillarda O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimi tubdan isloh qilinib, unda ma’naviy tarbiya masalalariga jiddiy e’tibor qaratilayotgani, xususan bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-sonli, 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli qarorlari, Vazirlar mahkamasi tomonidan 2019 yil 31 dekabrda tasdiqlangan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli, 2021 yil 3 iyundagi “Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 340-sonli qarorlari, ayni paytda, davlatimiz rahbarining xalq ta’limi tizimini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlab 2019 yil 23 avgustda, 2020 yil 30 oktyabrdan, 2021 yil 19 yanvarda, 2022 yil 28 yanvar hamda 5 aprel kunlari o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishlaridagi ma’ruzalarida, shuningdek 2017 yil 14 martdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 22 maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 8 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2017 yil 30 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident Qarorlari hamda 2020 va 2021 yilga Oliy Majlisga Murojaatnomalari va “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” bo‘yicha qator chiqishlarida ko‘rsatilgan vazifalar yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy va ta’lim-tarbiya sohalaridagi ishlarni rivojlantirishda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur hujjatlar ta’lim-tarbiya tizimidagi ishlarni zamonaviy talablarga muvofiq tashkil tashkil etib, yoshlarimizni milliy istiqlol g‘oyalari ruhida har jihatdan barkamol qilib tarbiyalash va umuman, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatni barpo etishga xizmat qilib kelmoqda. Ayni paytda, erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, jamiyatimizda ijtimoiy-gumanitar fanlarni

o‘qitish samaradorligini yanada oshirish, xususan, bunda zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis-kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish dolzarb vazifalardandir.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda ma’naviyatni, uni rivojlantirishda muhim o‘rin tutuvchi ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitishning nazariy va amaliy masalalariga doir muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘rinda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori Ismoil Saifnazarovning “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishni nega kuchaytirishimiz kerak?”[2], Faylasuf, sotsiolog va antropolog Valeriy Xanning “Bizga Eynshteynlar kerakmi?”[3], Eldor Asanovning “Gumanitar fanlardan nima naf?”[4, 24-31] nomli tadqiqotlari va boshqa qator ishlarda e’tiborga molik asosli fikr va taklif-tavsiyalar ilgari surilgan. Xususan, ularda ta’lim tizimida falsafa va ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning ijtimoiy-funksional mohiyati, bu boradagi dolzarb muammo va vazifalar hamda tajribalar atroflicha tahlil qilingan. Ayni paytda, mavjud ishlarda bugungi ta’lim tizimida falsafiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning inson va jamiyat hayoti va taraqqiyoti talab-ehtiyojlaridan kelib chiquvchi tub ijtimoiy-falsafiy asoslari, xususan ularni tizimli o‘qitishning “ob’ektiv” zaruriyati va ahamiyatini belgilovchi hayotiy omillar etarlicha yoritilmagan.

Shunga ko‘ra, keyingi vaqtarda Respublikamiz ta’lim-tarbiya tizimidagi mutasaddi muassasa-tashkilotlar va ulardagi mutaxassis-olimlar tomonidan bu boradagi ishlarni taraqqiyotimiz talablariga muvofiq yanada rivojlantirishga qaratilgan faol harakatlar olib borilayotgani g‘oyat ibratlidir. Zero, Prezidentimiz SH.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Bizda uzoq yillar davomida ijtimoiy fanlarga nisbatan bir tomonlama texnokratik yondashuv, bu boradagi masalalarga ajabtovur bir o‘gay qarash shakllanib qolgan.

Ayni paytda, afsus bilan qayd etish mumkinki, haligacha uzluksiz ta’lim bosqichlarida, ayniqsa oliy ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni qancha hajmda va qanday yo‘nalishlarda, qay bir shaklda va qanday mazmunda o‘qitish va o‘rgatish bo‘yicha yaxlit konsepsiya yo‘q.

Afsuski, ayrim kaltabin mulozimlarning Ijtimoiy fanlardan foyda yo‘q” qabilidagi nojo‘ya qarashlari oqibatida ushbu fanlarning salmog‘i va sifatini tushirib yuborishga yo‘l qo‘yildi”[5, 231-232].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Inson va jamiyat hayotida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni, ularni ta’lim tizimida o‘qitishning nazariy va uslubiy masalalari barcha davrlarda dunyo olimlarining e’tiborida bo‘lib, bu borada o‘ziga xos ilmiy qarash, nazariya va ta’limotlar yaratilgan. Ularni atroflicha o‘rganish natijasi sifatida aytish mumkinki, tub ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga ko‘ra ta’lim-tarbiya institutsional tizimi faoliyatining strategik maqsadi – faqatgina u yoki bu soha uchun mutaxassis-kadrlar tayyorlash emas, balki keng ma’noda, insonni tarbiyalash, ya’ni jamiyat a’zolarida ijtimoiy hayot va taraqqiyot talablariga mos bioijtimoiy xossa-xususiyatlarni shakllantirish, ularda chin insoniy xislat va fazilatlarni kamol toptirishdir. Shunga ko‘ra ta’lim-tarbiya tizimidagi

asosiy masala faqat matematik, fizik, ximik yoki injiner, vrach, o‘qituvchi kabi turli sohalar bo‘yicha mutaxassis-kadr etishtirish bo‘lib qolmasligi kerak, bular ikkinchi yoki undan keyin turadigan masala. Bu o‘rinda kasb-hunar yoki ixtisoslikka oid bilim, malaka, ko‘nikma va ma’lumotlar emas, insoniy fazilatlar birinchi o‘rinda turadi. Negaki, jamiyat uchun, ijtimoiy hayot va taraqqiyot uchun avval u yoki bu kasb-hunar yoki alohida bir ixtisoslikka oid bilim, malaka va ko‘nikma emas, chin insoniy xislat va fazilatlar muhimroq. Ya’ni odamzod injiner, vrach yoki agronom bo‘lishdan oldin albatta inson bo‘lish kerak. Chunki injiner, vrach yoki agronomdan inson emas, balki insondan injiner, vrach yoki agronom chiqarish mumkin. Shunga ko‘ra, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchitalabalarga avvalo inson va jamiyat haqidagi bilimlar berilishi, ularga ana shu bilimlarni beruvchi ijtimoiy-gumanitar fanlar albatta o‘qitilishi zarur.

Ayni paytda umuman “ma’lumot” yoki “oliy ma’lumot” tushunchalarining tizimli-strukturaviy tarkibi tahlil qilinganda ham ularning tub falsafiy-ontologik mazmunida aynan ijtimoiy-gumanitar bilimlar asosiy o‘rin tutishi ma’lum bo‘ladi. Bunda odamlarning ma’lumotlilik darajasi, xususan oliy ma’lumotlilik mazmuni va maqomi aynan ulardagi ijtimoiy-gumanitar bilimlar bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan agar oliy ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qitilmasa, unda oliy ta’limda ma’no qolmaydi, faqat mutaxassislikka oid kasbiy bilimlarni o‘zlashtirgan bitiruvchi kadrlar oliy ma’lumotli emas, shunchaki mutaxassis – tegishli kasb-hunarni egallagan kishi bo‘lib qoladi. Bunday mutaxassislik yoki kasbni esa faqat maxsus oliy o‘quv yurtida o‘qib emas, tegishli sohadagi biror kollej yoki ishlab chiqarish ob’ektida, u erdagagi tajribali mutaxassislarga shogird tushib, amaliy ishlarda qatnashib ham etarlicha o‘rganib-o‘zlashtirish mumkin.

Ijtimoiy hayotda ma’lumotlilik maqomini hamda ta’lim-tarbiya tizimida ijtimoiy-gumanitar bilimlarning zaruriyatini belgilovchi yana bir muhim holat shuki, ta’lim tizimining muayyan bosqichini, xususan oliy o‘quv yurtidagi mavjud ta’lim yo‘nalishini bitirgan mutaxassis-kadrlar jamiyat hayotining turli sohalaridagi tegishli lavozimlarda, jumladan boshqaruv lavozimlarida rahbarlik faoliyatini olib borishi mumkin. Har qanday muassasa-tashkilotdagi o‘qimishli rahbar o‘z faoliyatida oliy o‘quv yurtidagi ixtisosligiga oid o‘zlashtirgan bilim, malaka, ko‘nikmalardan tashqari ishda va hayotda har xil odamlar bilan muloqotda bo‘lib, yashash va ishlashga tegishli hayotiy bilimlardan foydanishiga to‘g‘ri keladi. Rahbarlik faoliyatining predmetida konkret mutaxassislikga oid narsalar emas, aynan odamlar, ularning hayoti, faoliyati va ular bilan munosabatlar masalasi asosiy o‘rin tutadi va bu jarayonda u albatta inson va jamiyatga doir bilim, malaka va ko‘nikmalardan foydalanadi. Masalan, zavod yoki fabrika rahbari u erdagagi uskunalar bilan emas, ko‘proq ana shu uskunalarni ishlatuvchi yoki boshqaruvchi odam(kadr)lar bilan ishlaydi. Rahbar ishda va umuman ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishi uchun ko‘proq ana shu odamlar, ularning hayoti va faoliyatiga doir konkret ilmiy bilimlarni o‘zlashtirgan bo‘lishi shart. Bu bilimlar faqat ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali beriladi va ular qanchalik ko‘p o‘qib-o‘zlashtirilsa rahbar faoliyati shu darajada samarali bo‘lishi

mumkin. SHuning uchun ham umuman ta’lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan oliy ta’lim tizimidagi barcha ta’lim yo‘nalishlarida ijtimoiy-gumanitar fanlar umumiyl o‘quv soatlarining kamida 30 foizi miqdorida majburiy fanlar sifatida o‘qitilishi, tayyorlanayotgan mutaxassis-kadrlar inson va jamiyat haqida oliy ma’lumot maqomiga mos haqqoniyl bilimlarni o‘zlashtirishi zarur. Ushbu bilimlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, ular shu darajada samarali faoliyat olib bora oladi.

O‘zbek tilida “Oliy” so‘zi – eng yuqori, yuksak degan ma’noni bildiradi. U ijtimoiy hayotdagi eng baland mavqeい va martabaga nisbatan qo‘llaniladi. SHunga ko‘ra, oliy ma’lumot deganda, inson tomonidan o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan eng yuqori, yuksak darajadagi bilim, ma’lumot nazarda tutilsa, oliy ma’lumotlilik deganda, ana shu ma’lumotga ega kishilar tushuniladi va ular zamonaviy jamiyatlarda tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanadi. Oliy ma’lumot oliy ta’lim muassasalarida beriladi. Ta’limni oliy ta’lim sifatidagi maqomi oliy o‘quv yurtlarida tegishli ilmiy bilimlarni har tomonlama chuqr va yuqori darajada o‘qitilishi, xususan ularda ijtimoiy-gumanitar fanlarni etarlicha tizimli o‘zlashtirilishi bilan belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan, 2001 yildan boshlab Respublikamizdagi qator oliy o‘quv yurtlarida faoliyat yuritib kelayotgan “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishida amalga oshirilayotgan nazariy va amaliy ishlarni tizimli rivojlantirish, bunda mazkur soha bo‘yicha mutaxassis-kadrlar tayyorlash samaradorligini yanada oshirish bilan bog‘liq muammo-masalalarini chuqr tahlil qilish va tegishli taklif-tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, quyida ayni shu xususda ba’zi mulohazalarni bayon qilamiz.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarda to‘plangan tajribalar tahlilidan kelib chiqib, aytish mumkinki, Respublikamiz oliy ta’lim tizimida milliy g‘oya, ma’naviyat va huquq ta’limi bo‘yicha o‘z vaqtida yo‘lga qo‘yilgan tashkiliy-uslubiy ishlar mustaqil taraqqiyotimiz talablariga muvofiq bo‘lib, ular bu boradagi faoliyatimizni yangi bosqichlarda rivojlantirish va kelgusi vazifalarni aniq belgilash uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA. Ayni paytda bugungi kunda dunyodagi har bir xalq va mamlakat hayotida ijtimoiy-gumanitar bilimlarning, shu jumladan milliy g‘oya, ma’naviyat va mafkuraning ahamiyati ortib borayotgani, mazkur soha uchun yuqori malakali mutaxassis-kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratishni taqozo qiladi. SHunga ko‘ra:

1. Hozirgi paytda butun dunyoda, jumladan bizdagi ma’naviy-mafkuraviy masalalar bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirishga real ehtiyojlar mavjud. SHu bois bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirish, xususan O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti, 09.00.07-Ma’naviyat tarixi va nazariyasi, 09.00.05-Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari, 09.00.08-Ma’naviy tarbiya, 09.00.09-Ma’naviy jarayonlar va

texnologiyalar kabi ixtisosliklarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarni har jihatdan kuchaytirish lozim.

2. Respublika ta’lim tizimidagi barcha bosichlarda, jumladan oliy ta’lim muassasalaridagi barcha ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisliklarida falsafiy va ijtimoiy-gumanitar fanlarni, ularni o‘qitishga ajratiladigan dars soatlarini ko‘paytirish hamda ta’lim sifatini oshirish, mazkur fanlar bo‘yicha yangi avlod darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratishga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Ayni paytda ularga oid adabiyotlarni turli tillarda nashr etish maqsadga muvofiq.

3. Mutaxassislarning ko‘rsatishlaricha, oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari ishlab chiqarishga borgach, ta’lim jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashda qiynalishmoqda. SHuning uchun ushbu yo‘nalishdagi o‘quv jarayonlarida talabalarning amaliy mashg‘ulotlari hajmini oshirish, bunda mazkur ta’lim turiga O‘quv rejalarida ko‘proq vaqt ajratish maqsadga muvofiq.

4. Mamlakatimizda falsafiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan milliy g‘oya, ma’naviyat va mafkura bo‘yicha malakali mutaxassis-kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish, bunda Respublikamiz oliy o‘quv yurtlaridagi “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi hamda magistratura mutaxassisliklari uchun qabul kvotalarini oshirish, ayni paytda, mazkur ta’lim yo‘nalishi bazasidagi magistratura mutaxassisliklarini ko‘paytirish, xususan, bunda “Milliy g‘oyaning falsafiy masalalari” hamda “Huquq ta’limi” (yoki “Yurist-pedagogika”) mutaxassisliklarini ochish maqsadga muvofiq.

5. Ushbu ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilarining kasbiy faoliyat ob’ektlari doirasini kengaytirish, bunda davlat ta’lim standartlarida ularning kasbiy faoliyat ob’ektlari faqat ta’lim muassasalaridan iborat bo‘lib qolmay, jamiyatdagi ma’naviy-ma’rifiy soha, yo‘nalish va tashkilotlar (masalan, mahallalar, mahalliy hokimiyat organlari, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va sh.k.) ham yaqqol ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq.

FOYDNILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: “O‘zbekiston”, 2009. –B. 12.

2. Saifnazarov I. “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishni nega kuchaytirishimiz kerak?” adolat.uz/news/izhtimoij-gumanitar-fanlarni-oqitishni-nega-kuchajtirishimiz-kerak-29.10.2021-10:10:29.

3. Valeriy Xan. “Bizga Eynshteynlar kerakmi?” <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/16/optimization/#!>

4. Asanov E. “Gumanitar fanlardan nima naf?” // “Tafakkur” jurnali. – Toshkent: 2021 yil. – №4. – B. 24-31.

5. Mirziyoev SH. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2022. – B. 231-232.

6. Kandov B.M. [Current Issues of Harmony of Human and National Values In the Formation of Civil Station of the Youth of New Uzbekistan](#) // Journal of Ethics and Diversity in International Communication. Volume 1, January 2022. – R. 30-33. ISSN: 2792-4017 (№8, SJIF – 7.845).
7. Kandov B.M. Ikramov R.A. [The Role of Education and Upbringing in the Formation of a Harmonious Personality in the Process of Globalization](#) // Journal of Ethics and Diversity in International Communication. Volume 1, November 2021. – R. 33-37. ISSN: 2792-4017 (№6, SJIF – 7.845).
8. Togayev Sh.H. [The Role of Education and Upbringing in the Spiritual Education of Youth in the Renewed Uzbekistan](#). // Journal of Ethics and Diversity in International Communication. Volume 1, January 2022. – R. 38-42. ISSN: 2792-4017 (№8, SJIF – 7.845).

QO‘QON XONLIGI MADRASALARIDA KO‘CHIRILGAN QO‘LYOZMA KITOBLAR XUSUSIDA <i>Abdullahayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li</i>	934
INSTITUTIONALIZATION OF GENDER EQUALITY POLICY: THEORY, PRACTICE AND UZBEKISTAN’S EXPERIENCE <i>Erkinova Sharofat Akramovna</i>	938
IPAK YO‘LIDAGI DURDONA: XORAZM SAVDO MARKAZLARINING TARIXI VA AHAMIYATI <i>Muborak Madrimovna Matyakubova</i>	941
MYTH AND HISTORY IN THE WRITINGS OF DEREK WALCOTT <i>Saidvaliyeva Fotima Saidikromxon qizi, A’zamboy Abduvohidov Mirzohid o‘g‘li</i>	946
OROLBO‘YI ILK SAK-MASSAGET QABILALARINING MADANIYATI VA SAN’ATI TARIXI <i>Kenjayev Bektash Davronbek o‘g‘li,</i>	954
BIRINCHI O‘ZBEK DIPLOMATI NAZIR TO‘RAQULOVNING SAUDIYA ARABISTONI PODSHOHLIGIDAGI DIPLOMATIK FAOLIYATI TARIXI <i>Qandov Bahodir Mirzayevich</i>	959
MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKİSTONDA KUTUBXONALARİNG MODDIY TEXNIK BAZASI HOLATI <i>Raxmatullayeva Saodat Ibragimovna</i>	968
MILLIY TARBIYANING O‘QUVCHI-YOSHLAR MA‘NAVİY KAMOLOTIDAGI O‘RNİ <i>Sanaqulov Sardor Istamqulovich</i>	975
FARG‘ONA VILOYATIDA MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA AHOLINI ISTE’MOL MOLLARI BILAN TA’MINLASH <i>N.U. Sadirova</i>	979
KRIMINOLOGIK FEMINİZATSİYASINING XOTIN-QIZLAR PSIXOEMOTSİONAL HOLATIGA TA’SIRI <i>Samatova Dilrabo Yusufovna</i>	985
THE HISTORY OF UZBEKISTAN SAVED IN MYTHS AND LEGENDS <i>Usarova Nilufar Yakubovna</i>	991
THE HISTORY OF THE TASHKENT REGIONAL DEPARTMENT OF FINANCE (1946–1950) <i>Ergashev Umid Mukhammed o‘g‘li</i>	997
THE IMPACT OF CENTRAL ASIAN TOURISM INTEGRATION ON THE FERGANA VALLEY <i>Abdumajidov.I.A.</i>	1003
YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKİSTONDA İJTIMOİY-GUMANİTAR FANLARNI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMİY-USLUBIY MASALALARİ <i>Tog‘aev Shavkat Xurramovich</i>	1009
BUXORO AMIRLIGI DAVRIDA SAMARQANDDA SAVDO MUNOSABATLARI <i>Toshpulatov Nurbek Boboqul o‘g‘li</i>	1016
ROSSIYA IMPERİYASINING TURKİSTONDA OLİB BORGAN MADANIY SIYOSATI <i>Tojiboyev Umidjon Usmonjon o‘g‘li</i>	1021
SO‘NGGI YILLARDA ICHKI ISHLAR TİZİMİDA AMALGA OSHIRILGAN STRUKTURAVIY O‘ZGARİSHLARNING XUSUSİYATLARI <i>Zayniddinova Shahodat Sayfiddinovna</i>	1028

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



Кокандский ГПИ. Научный вестник

“Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar” ilmiy jurnali OAK Rayosatining
2021-yil 31-martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix
hamda 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika fan tarmoqlari bo‘yicha
milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Bosishga ruxsat etildi: 2025-y. Nashriyot bosma tabog‘i – 16,375.

«Poligraf Super Servis» МЧЖ

150114, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar, Aviasozlar ko‘chasi 2 –uy

Elektron manzil: kspi_info@edu.uz

№5/2025